

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH DARSLARIDA MUAMMOLI TA’LIMDAN  
FOYDALANISH**

**Usmonova Vazira Rustam qizi**

*Buxoro viloyati Shofirkon tumani*

*38-son IDUMning boshlang‘ich fani o‘qituvchisi*

**Sanoyeva Maftuna Sulton qizi**

*Buxoro viloyati Shofirkon tumani*

*38-son IDUMning boshlang‘ich fani o‘qituvchisi*

**Salimova Nigora Salomovna**

*Buxoro viloyati Shofirkon tumani*

*38-son IDUMning boshlang‘ich fani o‘qituvchisi*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada muammoli vaziyat metodlari haqida kengroq ma’lumot berilgan va misollar orqali kengroq yoritilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *muammoli vaziyat, muammoli vaziyat turlari, ”Muammo“ texnologiyasi.*

Hozirgi davrda ma’nnaviyati, intellekti va madaniy saviyasi yuksak shaxsni shakllantirishda nafaqat ta’lim mazmuni, balki qo’llanilayotgan o‘qitish texnologiyalari ham muhim rol o‘ynaydi. O‘quv jarayoni o‘qish va bilish faoliyatiga o‘zgartirishning imkoniyatlaridan biri muammoli o‘qitish texnologiyasini tatbiq etishdir. Bu jarayonda hosil bo‘lgan ko‘nikma va malakalar axborot jamiyatি sharoitlarida yashash uchun zarur sifatlarni shakllantirishga olib keladi.

Muammoli ta’lim bu - o‘quvchiga beriladigan bilimning qaysi qismini, qanday yo‘l bilan berish muammosini samarali hal qilishga qaratilgan o‘qituvchi faoliyatidir. Muammoli ta’lim darsda bir vaqtning o‘zida o‘qituvchi va o‘quvchilarining hamkorlikdagi harakati bo‘lib, u o‘quvchi shaxsidagi muhim belgi-ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. N.G.Dayri aytganidek, darsda o‘rganiladigan mazmunning murakkab qismini o‘zlashtirishda o‘qituvchining faoliyati qanday bo‘lsa, o‘quvchi faoliyatini ham shu darajaga yetkazish muammoli ta’limning asosiy maqsadidir.

Muammoli ta’lim - o‘quvchilarining erkin fikrlashlariga, o‘zining fikrini erkin bayonqila olishlariga va fikrlarini yanada rivojlantirishlariga ta’sir etishdir. Bunda o‘quvchi diqqat bilan tinglashi, mustaqil va yolg‘iz fikrashi, jamoa bo‘lib fikrashi, tahlil qilishi, ko‘pchilik bo‘lib muhokama qilishi va to‘plangan fikrni bayon qila olishi kerak. Agar o‘qituvchi yangi mavzuni ta’sirli bayon qilib, ko‘rgazmalardan unumli foydalansa, bayon nihoyasida ayrim o‘quvchilar bilan ish olib borsa, o‘quv jarayoni samarali bo‘ldi yoki faol bo‘ldi, deb hisoblash mumkin. Ammo bu ta’lim usuli an’anaviy ta’lim berishdir. Muammoli ta’lim o‘qituvchidan aniq harakat qilishni, darsning har bir daqiqasini hisobga olishni, ushbu vaqtida kerakli samara hosil bo‘lishi uchun o‘zining

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

barcha imkoniyatlarini va mahoratini ishga solishni talab etadi. Bu masalani hal etishning muhim sharti o‘qituvchining bo‘lajak o‘quv mashg‘ulotiga tayyorgarligidir.

Tayyorgarlik jarayonida muammoli ta’limning barcha ko‘rinishlarini hisobga olish va uni uslubini ishlab chiqish zarur. Muammoli ta’limga tayyorgarlik ko‘rishda o‘qituvchilar qator qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu qiyinchiliklarni yengishda o‘qituvchini innovatsion ijodiy laboratoriyasining ahamiyati katta.

Ana shunday qiyinchiliklardan biri darsni muammoli tashkil qilish va muammoni o‘rganish usulini tanlashdadir. Chunki tanlangan usul faqat o‘quv materialini o‘zlashtirishni ta’minlabgina qolmay, balki o‘quvchilar faoliyatida mustaqillikni ham ta’minlashi zarur.

Ikkinci qiyinchilik esa muammoli ta’limni ko‘rinishini aniqlashda yuzaga keladi, ya’ni o‘qituvchi muammoni yechishga sinfdagi barcha o‘quvchilarni jalb qiladimi yoki vazifani ayrim guruh o‘quvchilariga bajartiradimi? Bu qiyinchilik o‘qituvchida muammoli vaziyat va muammoning bayoni haqidagi tasavvurlarni yetishmasligidan kelib chiqadi.

Uchinchi qiyinchilik esa darsda o‘quvchilarni qiziqishini uyg‘otish va uni uzlusiz rivojlantirib borishida ko‘rinadi. Chunki o‘quvchilar diqqatini bir nuqtaga muntazam to‘plashga o‘qituvchining tajribasi va mahorati yetmasligi mumkin.

Muammoli ta’lim haqidagi to‘plangan ma’lumotlarga asoslanib, shuni ta’kidlash lozimki, bu ta’lim turi ilmiy-uslubiy jihatdan 3 ko‘rinishga ega.

1. Muammoli vaziyatni vujudga keltirish,
2. Muammoning qo‘yilishi,
3. Muammoning yechimini topish.

Muammoli vaziyatni o‘quv mashg‘ulotlarining barchasida shakllantirish mumkin. Uni dars jarayonida qancha ko‘p shallantirish o‘qituvchiga bog‘liq. Muammoli vaziyatning ahamiyati shundaki u o‘quvchilar diqqatini bir joyga (muammoga) qaratadi va o‘quvchilarning izlanishiga, fikrlashga o‘rgatadi. Muammoli vaziyatni yaratganda o‘qituvchi o‘quvchilar o‘z diqqatlarini nimalarga qaratishlari kerakligini aytishi maqsadga muvofiqdir.

Boshlang‘ich sinf o‘qish darslaridaham muammoli tahlil usulidan foydalanish o‘quvchilarning asar yuzasidan chuqurroq mulohaza yurtishlariga yordam beradi. Muammoli tahlil badiiy asardagi muammoli masala va vaziyatlar asosida tashkil etiladi. Masalan, Hakim Nazirning “Qodir bilan Sobir” hikoyasi o‘qilganda (4-sinf) “Bolalar o‘rtasida qanday holatlarda do‘slik bo‘ladi? Doim birga yuradigan bolalarni do‘s deb bo‘ladimi?” kabi savollar asosida muammoli vaziyat yaratilib, o‘quvchilar fikr-mulohazalari asosida hal etiladi. Bu esa o‘quvchilarning ijodiy va mantiqiy fikrlashlariga zamin yaratadi.

Epik asar g‘oyasini to‘g‘ri belgilash asar matni ustida ishlashning muhim sharti hisoblanadi. Ammo muallifni o‘quvchi to‘g‘ri tushunganligini qanday aniqlash mumkin? Bu muammo o‘qish ta’limining bosh maqsadi bo‘lib, unga asar sarlavhasi ustida diqqat

4 – SON / 2022 - YIL / 15 - DEKABR

bilan ishslash orqali javob topish mumkin. Sarlavha ustida ishslash badiiy asar g'oyasini to'g'ri tushunishga yo'l ochadi. Shuning uchun ham asar sarlavhasi ustida ishslashda ham muammoli ta'lrim elementlaridan foydalanish yaxshi samara beradi.

Jumladan, Farhod Musajonovning 3-sinf “O'qish kitobi” darsligidagi “Yaxshilik” hikoyasining birgina so'z – “Yaxshilik” deb nomlanishi undagi bosh qahramon Erkinding hatti-harakatlari o'zgarishi bilan bog'liqdir. Barcha o'zgarishlar asardagi Pirmat boboning birgina “Yaxshilik qil, lekin maqtanib uni yuvib yuborma” degan nasihatlari natijasida yuz beradi va u o'z hatti-harakatlarini o'ylab ko'rishga majbur bo'ladi.

Mirzakalon Ismoiliyning 3-sinf “O'qish kitobi”dagi “Bobongiz xafa bo'lsa maylimi?” hikoyasi ham o'zining sarlavhasi bilan asosiy g'oya bilan bevosita bog'langan. Bu g'oya boboning nevarasi sodir qilgan hatti-harakatlarni baholashida ifodalangan. Shuning uchun o'quvchilarga hikoya nima uchun bunday nomlanganini tushuntirishda, albatta, undagi asosiy muammoga murojaat qilinadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, muammoli o'qitish jarayonida o'qituvchilar ham, o'quvchilar ham o'zlarining intellektual, jismoniy, ma'naviy imkoniyatlarini o'quv va amaliy muammolarni yechishda doimiy sinovdan o'tkazadilar. Bu esa kelajakda har qanday muammoli vaziyatnioson hal eta oladigan shaxsni shakllantirishga zamin hozirlaydi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. -T.: “Ma'naviyat”, 2008-y.
2. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari: -T.: “O'qituvchi”, 2004- y.
3. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari (o'quv qo'llanma).-T.: “Fan” nashriyoti, 2006 -y.
4. Farberman B. Ilg'or pedagogik texnologiyalar.-T.: “Fan”, 2000-y.